



AMIR TEMUR VA MIN SULOLASI O'RTASIDAGI DIPLOMATIK
MUNOSABATLAR

Ulug'ova Lutfiyaxon Xonto'ra qizi:

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat univesiteti Tarix fakulteti
4-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: Yakubova Muxtaram Bakayevna,

*SamDU O'zbekiston tarixi kafedrası
o'qituvchisi, PhD*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Amir Temur va Min sulolasi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasida shakllangan siyosiy, iqtisodiy hamda diplomatik aloqalarning xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, Temuriylar davlati va Min imperiyasi o'rtasidagi elchilik almashuvlari, o'zaro manfaatlar hamda strategik maqsadlar ko'rib chiqiladi. Maqolada ikki yirik siyosiy markaz o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos jihatlari va ularning mintaqaviy hamda xalqaro ahamiyati ilmiy asosda ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, Chin, Min, diplomatiya, Samarqand, Temuriylar davlati, Xitoy, elchilik aloqalari, xalqaro munosabatlar, geosiyosat, Buyuk Ipak yo'li, tarixiy hamkorlik, Xonbaliq.*

Аннотация: *В данной статье на основе исторических источников анализируются дипломатические отношения между Амир Темур и династия Мин. В исследовании освещаются особенности политических, экономических и дипломатических связей, сформировавшихся между Центральной Азией и Китай в XIV–XV веках. Также рассматриваются обмены посольствами между государство Тимуридов и империей Мин, их взаимные интересы и стратегические цели. В статье научно раскрываются специфические особенности отношений между двумя крупными политическими центрами, а также их региональное и международное значение.*



Ключевые слова: *Амир Темур, Китай, Мин, дипломатия, Самарканд, государство Тимуридов, Китай, посольские связи, международные отношения, геополитика, Великий шелковый путь, историческое сотрудничество, Ханбалык.*

Abstract: *This article analyzes the diplomatic relations between Amir Temur and the Ming dynasty based on historical sources. The study highlights the features of political, economic, and diplomatic ties that developed between Central Asia and China in the 14th–15th centuries. It also examines the exchange of embassies between the Timurid state and the Ming Empire, as well as their mutual interests and strategic objectives. The article scientifically reveals the specific characteristics of relations between these two major political centers and their regional and international significance.*

Keywords: *Amir Temur, China, Ming, diplomacy, Samarkand, Timurid state, China, diplomatic missions, international relations, geopolitics, Silk Road, historical cooperation, Khanbaliq.*

XIV–XV asrlar jahon tarixida yirik siyosiy kuchlar shakllangan va ular oʻrtasida murakkab diplomatik munosabatlar rivojlangan davr sifatida ajralib turadi. Bu davrda Markaziy Osiyoda qudratli davlat barpo etgan Amir Temur hamda Sharqiy Osiyoda hukmronlik qilgan Min sulolasi oʻrtasidagi aloqalar alohida ilmiy qiziqish uygʻotadi. Temuriylar davlati oʻzining faol tashqi siyosati orqali nafaqat qoʻshni hududlar, balki uzoq mamlakatlar bilan ham diplomatik munosabatlar oʻrnatishga intilgan. Xususan, Xitoy bilan boʻlgan aloqalar siyosiy barqarorlikni taʼminlash, savdo yoʻllarini nazorat qilish hamda xalqaro mavqeni mustahkamlashda muhim oʻrin tutgan.

Amir Temurning Xitoy bilan boʻlgan aloqalari asosan 1368-yilda Xitoyda hokimiyatga kelgan Min sulolasi davridan boshlangan. Sharqda qurulayotgan Min imperiyasi va Amir Temur davlati oʻrtasida dastlab elchilik-diplomatik aloqalar yoʻlga qoʻyiladi. Amir Temur Xitoy xoniga oʻz elchilari orqali ot tuya va boshqa sovgʻa salomlar yuboradi. Xitoy xoni esa bunga javoban kumush pul, va ipak matolar qaytargan. Xitoy olimlarining tadqiqotlariga koʻra Amir Temur Min xonligining



poytaxti Pekin (Xonbaliq) shahriga 8 marotaba o'z elchilarini yuborib Xitoy bilan diplomatik va savdo aloqalarini rivojlantirgan.¹

Xususan, 1387-1389-yillari kuzda Mavlono Xofiziy, 1388-yilda Toj ad-Din (Tamuding), 1391yilda Shoxalil(Shaxalil),1392yilda Nig'mat ad-Din(Nimaopuding),1394 va 1395yillarda Darvish(Dilibeyshi),1396-yilda Alomat ad-Din(Alamadan)boshchiligida Pekinga Amir Temur nomidan elchilar borgan.Xususan 1396-yilda Amir Temur Alomat ad-Din orqali Xitoy xoniga maktub ham yo'llab,uning yuborgan narsalaridan mamnun bo'ganligini takidlagan.Usha vaqtlarda Samarqanddan Pekinga 6 oyda yetib borilgan.Kuzda yo'lga chiqqan karvon keyingi yil bahorning oxirida yoki yozning boshida manziliga yetib borgan.Xitoy manbalaridan malum bo'lishicha,o'sha zamonda Xitoyning boshqa shaharlariga ham Samarqandlik savdogarlar kelib bozorlarda ot sotishgan.Xususan 1390-yilda erta bahorda Samarqandlik Sho Juraali Lyangjou shahrida 670 ta ot sotgan.Mahalliy hokim bu haqida Tayszuga hisobot berib,mazkur savdogarni Pekinga yuborishni so'ragan. Samarqanddan Xitoyga yuborilgan elchilar bilan birgalikda katta savdogarlar guruhlari ham qo'shilib borgan.²

Tayszuning Amir Temurga yo'llagan bir maktubida bayon etilishicha, ayrim Samarqandlik savdogarlar Xitoyga kelganidan so'ng vataniga qaytmasdan savdo ishlari bilan shug'ullangan va ayrimlari uy joy sotib olib bola-chaqali bolib qolgan.Min sulolasi qo'shinlari Xitoyning shimolida yashayotgan tatarlarga qarshi yurish chog'ida asirga tushib qolganlar orasida bir necha yuz nafar Samarqandlik savdogarlar bo'lganligi aniqlangan. Ushbu misol Amir Temur savdogarlari faqatgina Xitoy hududida emas,balki uning shimolidagi yaylovlarda ham savdo ishlari bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi.Min sulolasi ham Samarqandga bir necha bor elchilar va savdogarlar yuborgan.Masalan 1395-yilda Samarqandga Pekindan Bo An boshchiligida 1500 kishidan iborat bo'lan elchi va savdogarlar guruhi, 1397-yilda Chen Deven boshchiligidagi xitoy elchilari va savdogarlari kelgan.Keltirilgan

¹ Xo'jayev A. Buyuk Ipak yo'li:munosabatlar va taqdirlar.-Toshkent.2007.-S.199.

² Xo'jayev A. Farg'ona chorrahasida Xitoy manbalari. – Farg'ona.2005.-S.86.



malumotlardan ko'rinib turibdiki Amir Temur davrida anchadan beri to'xtab qolgan Turkiston-Xitoy diplomatik va savdo aloqalari tiklanib Buyuk Ipak yo'li qayta ochildi.³

Ammo tomonlarning amalga oshirgan aloqalarga ko'z qarashlari bir xil bo'lmaganligi tufayli Amir Temur davlati bilan Min xonligi o'rtasida yangi g'oyaviy muammo paydo bo'lgan. Malumki xitoy hukumdorlarining ananaviy tushunchalariga ko'ra xoqan "xuandi"(imperator)deb atalib u tangrining kurrai zamindagi o'g'loni (tyanszi)hisoblangan.unga barcha mamalakatlar va xonlar itoatkor bo'lishi lozim edi.Shu bois Amir Temur elchilari min sulolasi tomonidan "tungshi"ular olib borgan sovg'alar esa "gungfu"yani fuqarolar hukumdorga to'laydigan soliq deb qabul qilinadi.Min sulolasining mustaqil xolda tashkil topgan va turkistonni birlashtirishda katta xizmat qilgan davlat hukomdorini o'zining tobeyi deb bilishi kattalik va o'zgalarni mensimaslikdan boshqa narsa emas edi.Masalaga bunday yondashuv Amir Temurni juda ranjitgan edi.⁴

Amir Temurdan xitoyga birinchi marotaba (1387-yili) elchi bo'lib Mavlono Xofiz kelganda,Tayszu uning yuborgan sovg'alarini o'ziga bo'lgan tobelik belgisi deb qabul qildi.Uning bunday munosabati Amir Temurdan keyingi yillarda yuborilgan elchilarga va sovg'alarga nisbatan ham saqlanib qoldi. Xitoy hoqoni o'zining Amir Temurga javoban berib yuborgan sovg'alarini esa uning << tobeligini qabul qilganligi>> uchun ko'rsatilgan himmat belgisi deb hisobladi. Shu asosada Tayszu Amir Temurga yo'llagan maktubida uni xitoy xoniga itoatkor xon sifatida ifodalagan Xitoy xoni sohibqironning mavqei bilan hisoblashmagan uning maktubi bilan tanishgandan so'ng, Amir Temur qattiq ranjib, Samarqandga 1395 va 1397-yillarida kelgan Bo An,Chen Deven boshchiligidagi xitoy elchilarini ushlab qolgan ular vataniga Amir Temur vafotidan keyin qaytganlar.Samarqandda ushlab qolinishining bundan tashqari yana ikki sababi bo'lgan. Bularning birinchisi, Bo An 1500 kishi hamrohligida Xitotga bormoqchi bo'lganligi Amir Temurda shubha

³ Hamidov A.Z. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshken.2000.-S.184.

⁴ Uljaeva Sh.Amir Temur diplomatiyasi.-Toshkent.2018.-S.94.



uygʻotganligida, ikkinchisi, Min xoqoni 100 ming musulmonni qatl etish toʻgʻrisida farmon bergan, degan xabarning Amir Temurga yetib kelganligidir. Xitoyda qatl etilgan musulmonlarning soni 100 ming boʻlmasligi ehtimoldan xoli emas. Ammo moʻgʻullar hukmronligi davrida turkistonlik musulmonlarning jamiyatdagi mavqei baland boʻlganligi va ular vakillarining yuqori darajada davlat xizmatiga jalb etilganligi uchun, Min sulolasi ularning koʻpchiligini jazolaganligi tarixiy haqiqatdir. Aslida esa, Amir Temur Xitoy xoniga elchilar orqali sovgʻalar joʻnatib, evaziga xitoy mollari olib kelinishi orqali ikki davlat oʻrtasidagi teng huquqli savdo aloqalarining tiklanishini koʻzda tutgan edi. Bu haqda mahalliy manbalarda koʻp maʼlumotlar uchraydi. Afsuski, Markaziy Osiyo manbalari bilan xitoy manbalarini solishtirish asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega boʻlmagan ayrim tarixchilar, jumladan xitoy tarixchilari Amir Temurning bu istagini toʻgʻri bayon etolmaganlar. Ular xitoy xonlari saroyi tarixchilari tomonidan bitilgan manbalardagi amaliyotda zid koʻrsatmalarni “haqiqat” deb qabul qilganlar. Buning ustiga turkistonlik savdogarlarga Xitoyda erkin savdo qilishga yoʻl qoʻyilmaganligi va turonlik musulmonlarning qatl etilishi Amir Temurning gʻazabini keltirgan. Mavjud adabiyotlarda, jumladan Xitoy tarixchilarining asarlarida zikr etilishicha, Min sulolasi xonining munosabatidan ranjigan Amir Temur unga qarshi harbiy yurish qilmoqchi boʻlgan, bundan xabar topgan Min sulolasi esa tashvishga tushib, urushga tayyorgarlik koʻra boshlagan.⁵

Sohibqiron Amir Temur 1404-yilning iyul' oyida yetti yillik yurishdan Samarqandga qaytgandan soʻng, mamlakat markazida qanday bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgani va uning holati bilan qiziqdi. Shu bilan birga poytaxt Samarkandda bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlariga yanada eʼtibor qaratdi. Bir necha shahzodalarning toʻy marosimlarini oʻtqazdi. Mamlakat ishlarini tartibga solgandan soʻng, Xitoy yurishiga tayyorgarlik koʻra boshladi. Lashkarni kuzatar

⁵ Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda Chingizxon va Amir Temur. -Toshkent. 1994. -S.198.



ekan Xitoyni egallash uchun tayyorligini, Xitoy bilan urush qilish uchun g'oyatda qudratli kuchga ega bo'lganini his qilmoqda edi.⁶

Manbalarda ta'kidlanishicha Xitoy yurishi paytida Amir Temur qo'shini ikki yuz ming suvoriydan iborat bo'lgan. Amir Temur rejasi buyicha lashkar Sirdaryodan o'tib, O'trorda nafas rostlab Turfon orkali Su-Chunni qo'lga kiritishi lozim edi. Bahorga chiqib esa Xitoy zabt etilishi rejashtirilangan edi. 1404-yilning 27-noyabr kuni Amir Temur Samarqanddan chiqib, Oqsulot kishlog'iga yetib bordi. Undan so'ng Qorabuloq mavzesiga yetganda safarga chiqqan shaxzodalar va amirlar o'z qo'shinlari bilan Sohibqironga kelib qo'shildilar. Butun boshli qo'shin birgalikda Ilono'tti yo'li orqali Tomlik degan joyga kelganda qalin qor yog'di va juda qattiq sovuq bo'ldi. Qo'shin o'z sarkardasi boshchiligida Oqsulot mavzesiga kelib tushdi. Ushbu joy qumloq edi va o'tin mo'l edi. Sohibqiron Oqsulotda qariyb ellik kun o'ltirdi. Bundan ko'rinib turibdiki, qattik sovuk va qalin qor yog'ishi natijasida qo'shin bir yerda turib olgan.⁷

Oldinga harakatlanish iloji bo'lmagan. So'ngra Amir Temur Oqsulotdan Sirdaryoning quyi tarafidan yurib daryodan o'tdi. Qattiq sovuq bo'lganligidan Sirdaryo suvi qalin muzlagan edi. Daryoning ustidan karvonlar aravalari, otlari bilan bemalol o'tsa bo'lardi. Amir Temur 1405 yilning 14-yanvar kuni O'trordagi Berdibek saroyiga kelib joylashgan. Berdibek Amir Temurning eng sodiq amirlaridan biri Shayx Nuriddinning ukasi edi. Sovuq tushib qolgani uchun Temur qo'shin boshliqlarini, amirlarini qishlash uchun Toshkentga jo'natib yuboradi. Uning yonida fakat amirlar Shoh Malik, Shayx Nuriddin va Xoja Yusufiarga qoladi. Amir Temur turgan uyda yong'in chiqqan, uni tezda o'chirishgan va ta'mirlashgan. O'sha paytda kechalari odamlar yomon, qo'rqinchli tushlar ko'ra boshlashgan. Bu esa qo'shin kayfiyatiga o'zgacha ta'sir qilgan. Amir Temur buyrug'i bilan oldinga yurish uchun yo'llarni tekshirishga guruh yuboradi. Yo'llarni tekshirgan guruh qorning qalinligi ikki nayzaga teng kelishi, yurish imkoniyati yo'qligi xabarini keltirishadi.

⁶ Sodiqov X. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati. -Toshkent. 2018. -S.272.

⁷ Kenjayev S. N. o'g'li, "Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Buxoro, 2022, S.56.



To‘xtamishxondan O‘trorga Qora Xoja boshchiligida elchi xay'ati keladi va uning maktubini keltiradi. Maktubda Amir Temur uning aybidan o‘tishini va taxtga o‘tirishga yordam berishini iltimos qilib, hech qachon uning amridan chiqmasligini, nihoyatda afsusda ekanligi aytilgan edi. Amir Temur elchi sharafiga katta ziyofat beradi. Ziyofat chog‘ida Xitoy yurishidan qaytgandan so‘ng, albatta Jo‘chi ulusi taxtiga To‘xtamishxonni o‘tkazishga va'da etadi. Shu kuni Amir Temur malikalar va shahzodalarni Samarqandga qaytishga va To‘xtamishxon elchisi Qora Xojaga ko‘p sovg‘a-salomlar bilan ruxsat berib, Xitoyga yurishni davom ettirishga farmon beradi. Lekin, to‘satdan Amir Temur qattik kasallanib yotib koladi. 1405 yilning 11-fevraliga kelib, sohibqironni kuchli isitma a'zoyi badanini qamrab oldi. U zohiran sovuqdan amin bo‘lib, botinan o‘zidan ibrida (kasali)ni da'f qiladigan narsa tayyorlamoqni istadi. (Ibn Arabshohning Amir Temur tarixiga bag‘ishlangan asarida “ibrida” kasalligi haqida ma'lumot berilib, u burudat (sovuq) va rutubat g‘alabasidan paydo bo‘ladigan va jimoni zaiflashtiradigan kasallikdir).⁸

O‘z zamonasining eng kuchli tabiblaridan Mavlono Fazlulloh Tabriziy boshchiligidagi tabiblar Amir Temurda bir kasallikka qarshi da'vo dorilarini qo‘llasalar, boshka bir kasallik chiqib kela boshlaydi. Paydo bo‘layotgan kasalliklar bir-biriga zid bo‘lib, davolash choralari foyda bermay qoldi. Dardiga davo berish maqsadida tayyorlangan dorilar ichirilsa ham o‘zgarish bo‘lmasdi. Ulug‘ Sohibqiron Amir Temur bobomiz o‘z vasiyatida davlat ishiga biror daqiqa bo‘lsin loqayd va befarq qaramaslikni ta'kidlagan. Shundan so‘ng Mavlono Xubatulloh ichkari kirib, Amir Temurning yonida Qur'on tilovat qila boshlagan. 1405-yil 18-fevral kuni kechki payt shom va xufton namozlari orasida bir necha bor “la ilaha illalloh” kalimasini takrorlagach jon taslim qildi.

Xulosa

Amir Temur va Min sulolasi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘z davrining murakkab siyosiy va geosiyosiy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ushbu aloqalar nafaqat oddiy elchilik almashinuvi bilan cheklanib qolmay,

⁸ Rahimov J. Amir Temur buyuk davlat arbobi va ulug' sarkarda. Toshkent. 2023. -S.398.



balki savdo-iqtisodiy manfaatlar, hududiy xavfsizlik va xalqaro nufuzni mustahkamlash kabi omillarni ham o'z ichiga olgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Temuriylar davlati tomonidan olib borilgan faol tashqi siyosat Xitoy bilan munosabatlarda ham yaqqol namoyon bo'lgan. Amir Temur o'z davrida diplomatiyani harbiy kuch bilan uyg'unlashtirgan holda olib borgan bo'lsa, Min sulolasi esa ko'proq an'anaviy siyosiy-diplomatik mexanizmlar orqali aloqalarni tartibga solishga intilgan. Shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshirilgan savdo va madaniy almashinuvni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Bu esa o'z navbatida, Markaziy Osiyo va Sharqiy Osiyo o'rtasida o'zaro bog'liqlikni kuchaytirgan. Umuman olganda, Amir Temur va Min sulolasi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'sha davr xalqaro tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bugungi kunda ham tarixiy tajriba sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu aloqalarni o'rganish zamonaviy xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xo'jayev A. Buyuk Ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. - Toshkent. 2007. - S. 199.
2. Xo'jayev A. Farg'ona chorrahasida Xitoy manbalari. - Farg'ona. 2005. - S. 86.
3. Hamidov A.Z. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. - Toshkent. 2000. - S. 184.
4. Uljaeva Sh. Amir Temur diplomatiyasi. - Toshkent. 2018. - S. 94.
5. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda Chingizxon va Amir Temur. - Toshkent. 1994. - S. 198.
6. Sodiqov X. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati. - Toshkent. 2018. - S. 272.
7. Kenjayev S. N. o'g'li, "Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Buxoro, 2022, S. 56.
8. Rahimov J. Amir Temur buyuk davlat arbobi va ulug' sarkarda. Toshkent. 2023. - S. 398.